



AXBOROTLASHGAN RAQAMLI IQTISODIYOTNING JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA IQTISODIY TA'SIRI

Nasrullayev Feruz

Qarshi davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0003-2558-2465

innovate407@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida axborotlashtirish jarayonining o'rni, hamda uning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotga ta'siri ilmiy tahlil qilingan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi, "raqamli transformatsiya" jarayoni va ularning ijtimoiy munosabatlarni tubdan o'zgartirishdagi roli va munosabatlari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, axborotlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari jadal, ijtimoiy boshqaruv samaradorligi yuqori va aholining intellektual salohiyati yuqori rivojlangan bo'ladi.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish, raqamli transformatsiya, innovatsiya, jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bilim iqtisodiyoti, intellektual salohiyat.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

Насруллаев Феруз

Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ роли процесса информатизации в развитии общества, а также его влияния на экономическую, социальную и духовную жизнь. Рассмотрены и проанализированы широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), процесс "цифровой трансформации" и их роль в коренном изменении общественных отношений. В ходе исследования использовались методы анализа литературы, сравнительного анализа и системного подхода. Результаты показывают, что страны с высоким уровнем информатизации характеризуются быстрыми темпами экономического роста, высокой эффективностью социального управления и высокоразвитым интеллектуальным потенциалом населения.

Ключевые слова: информатизация, цифровая трансформация, инновации, общество, информационно-коммуникационные технологии, экономика знаний, интеллектуальный потенциал.

ECONOMIC IMPACT OF THE INFORMATION-DIGITAL ECONOMY ON THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Nasrullayev Feruz

Karshi State Technical University

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the role of the informatization process in societal development, as well as its impact on economic, social, and spiritual life. The widespread implementation of information and communication technologies (ICT), the process of "digital transformation," and their role in radically changing social relations are examined and analyzed. The research employed methods of literature review, comparative analysis, and a systematic approach. The results indicate that countries with a high level of informatization experience accelerated economic growth rates, enhanced effectiveness of social management, and a highly developed intellectual potential of the population.*

Keywords: *informatization, digital transformation, innovation, society, information and communication technologies, knowledge economy, intellectual potential.*

Kirish.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taraqqiyoti davlatlarning global maydondagi mavqeini belgilovchi asosiy ko'rsatkichga aylanmoqda. Masalan, xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham sezilarli darajada tezlashmoqda. AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi davlatlarning rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ilmiy-texnikaviy salohiyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda bu jarayon alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinishi mamlakatda axborotlashtirishni davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Bugungi kunda elektron hukumat tizimi, elektron sog'liqni saqlash, masofaviy ta'lim, elektron tijorat va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat hayotini yanada qulayroq va samaraliroq qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Jamiyatni axborotlashtirish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muhokamalar markaziga chiqqan. G'arb olimlari orasida bu yo'nalishda bir qator muhim nazariyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Daniel Bell (1973) o'zining mashhur "Postindustrial jamiyat shakllanishi" asarida ishlab chiqarishning yangi bosqichi – "bilimlar jamiyati" haqida so'z yuritadi. Uning fikricha, agrar va industrial bosqichlardan farqli o'laroq, postindustrial jamiyatda asosiy ishlab chiqarish omili moddiy resurslar emas, balki axborot va bilim hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining mashhur sotsiologi va industrial tsivilizatsiya g'oyasining asoschilari qatoriga kiruvchi Elvin Toffler (1980) esa "Uchinchi to'lqin" konsepsiyasida insoniyat sivilizatsiyasining uchinchi bosqichi—axborotlashgan davrni bashorat qilgan. Unga ko'ra, bu davrda axborot oqimlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi aytilgan.

Yana bir yevropalik olim ispan sotsiologi Manuel Kastels (1996) "Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat" nomli asarida global axborot tarmoqlarining jamiyat tuzilishiga ta'sirini tahlil qilib, "tarmoqli jamiyat" (network society) konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu g'oyaga ko'ra, ijtimoiy munosabatlar keskin va tobora ko'proq virtual tarmoqlar orqali shakllanadi va rivojlanadi deyilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham axborotlashtirish jarayonining turli qirralari o'rganilgan. Masalan, professor Abduqodirov (2009) O'zbekistonda axborotlashtirishning ta'lim tizimidagi o'rnini chuqur tahlil qilib, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan. Muslimov, Usmonboyeva, Sayfurov, To'rayevlar (2015) esa o'z tadqiqotlarida pedagogik jarayonlarni axborot texnologiyalari asosida tashkil etish metodlarini yoritadi. Ularning tadqiqotlarida AKTni ta'lim, boshqaruv va ishlab chiqarishga tatbiq etishning afzalliklari tahlil qilingan.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan ko'plab hisobotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Masalan, OECDning (2022) "Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari" hisobotida davlatlarning iqtisodiy samaradorligi raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. UNESCOning (2022) ta'lim sohasidagi tadqiqotlari esa AKTning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi va ta'limni demokratlashtirishdagi rolini ko'rsatib beradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatda axborotlashtirish jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga bevosita ta'sir etuvchi global hodisa sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani yozishda ilmiy abstraksiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish usullaridan foydalanib, mavzuga bog'liq ko'plab ilmiy nashrlar talqin qilindi, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xar bir sohani rivojlantirish avvalom bor axborotlashtirishning o'rni ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ush maqolamizda axborotlashtirish jarayonining jamiyat rivojiga ta'sirini ilmiy isbotlar asosida keng muhokama qilinadi. Yuqorida sanab o'tilgan olimlarning tadqiqotlari va izlanishlarini tahlil qilinganda shunga amin bo'lishimiz mumkinki iqtisodiy rivojlanishda xususan raqamli iqtisodiyot tushunchasi asosiy fokusda bo'lgan bir paytda axborotlar kompleksi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotlashtirish iqtisodiy jarayonlarning tub isloh qilinishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari yalpi ichki mahsulotining (YAIM) sezilarli qismi raqamli iqtisodiyotga to'g'ri keladi. Masalan Organisation for Economic Co-operation and Development OECD ma'lumotlariga tayansak, Amerika Qo'shma Shtatlarida raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 12 foizdan ortiq, Yaponiyada esa bu ko'rsatkich 16 foizdan ortiq. Yaponiyada hozirda raqamli ko'nikmalar YAIMga qo'shayotgan hisyasi 16% atrofida, lekin bu "raqamli iqtisodiyotning to'liq hajmi" raqami emas, balki raqamli ko'nikmalar orqali qo'lga kiritilayotgan iqtisodiy foyda. Xitoy raqamli iqtisodiyoti "core industries" ta'rifiga muvofiq baholanganda 9.9% "raqamli iqtisodiyotning faqat asosiy sanoatlari" ulushini ko'rsatadi. Ammo bu ko'rsatkich digital services, elektron tijorat, bulutli xizmatlar ulushini hisobga olmagan holda baholangan. Shu sababli 9.9% raqami "raqamli iqtisodiyotning faqat asosiy sanoatlari" ulushini ko'rsatadi. Janubiy Koreyada esa digital texnologiyalarning keng tatbiqi orqali bo'lajak imkoniyat ("digital opportunity") YAIMning taxminan 13% ga teng bo'lishi mumkinligi baholanmoqda. Prognozlar shuni ko'rsatadiki AQSH va Yaponiyada 2030 yilga borib ushbu ko'rsatkichlar 30% ni tashkil etishi mumkin.

Axborotlashtirishning iqtisodiy samarasini quyidagi jihatlar orqali ham ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda mehnat unumdorligining oshishi - AKT asosida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, bu esa vaqt va resurs tejamkorligiga olib keladi. Masalan, sanoatda "aqlli ishlab chiqarish" tizimlari (Industry 4.0) mehnat unumdorligini 20–30 foizga oshirishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Bu tushuncha ilk bor 2011-yilda Germaniyada Hannover Messe ko'rgazmasida ilgari surilgan bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonlarining to'liq raqamlashtirilishi, avtomatlashtirilishi va sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), big data,

kiber-fizik tizimlar asosida boshqarilishini anglatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Industry 4.0 ishlab chiqarish jarayonini nafaqat samaraliroq qiladi, balki YAIM o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. McKinsey Global Institute hisob-kitoblariga ko'ra, 2030-yilgacha Industry 4.0 texnologiyalari global iqtisodiyotga qo'shimcha 3,7 trillion AQSh dollari qiymat yaratishi mumkin¹.

Bundan tashqari mehnat bozoriga ham kuchli tasir qiladi. ahon iqtisodiy forumi (WEF) prognozlariga ko'ra, 2025-yilgacha 85 million an'anaviy ish o'rni yo'qoladi, ammo 97 million yangi—raqamli ko'nikmalarni talab qiladigan ish o'rinlari paydo bo'ladi. Inson kapitali va rivojiga turtki berib innovatsion ta'lim, qayta kasbiy tayyorlash, uzluksiz ta'lim muhim omilga aylanib boradi. Bunday ta'sirlar ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik va ekologik samaradorlikka ham turtki bo'ladi, ya'ni raqamli texnologiyalar orqali shaffof boshqaruv, elektron hukumat tizimlari, raqamli sog'liqni saqlash rivojlanishi hamda ishlab chiqarish tannarxi pasayishi, mahsulot sifatiga talab ortishi, eksport imkoniyatlari kengayishi va "yashil texnologiyalar"ni keng qo'llash imkonini beradi. Mamlakatimiz kontekstida ko'radigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" (Farmon, 2020) strategiyasi orqali Industry 4.0 elementlarini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Elektron hukumat, elektron sog'liqni saqlash, elektron ta'lim tizimlarining rivojlanishi jamiyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli madaniyat (internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kutubxonalar) milliy va jahon madaniyatining o'zaro almashuvini tezlashtirmoqda (Qonun, 2022).

Axborotlashtirish jarayonlari fuqarolarning turmush tarzini, ijtimoiy aloqalarini va boshqaruv tizimlariga munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Ta'lim tizimida – masofaviy ta'lim va elektron resurslar tufayli bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Masalan, UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda pandemiya davrida dunyo bo'yicha 1,5 milliard o'quvchi masofaviy ta'lim tizimlaridan foydalangan. Bu raqam axborotlashtirishsiz imkonsiz bo'lar edi. O'zbekistonda ham Moodle, Ziyonet, Coursera kabi platformalardan keng foydalanilmoqda. Elektron hukumat tizimining rivojlanishi – fuqarolarga davlat xizmatlarini tezkor va qulay tarzda taqdim etish imkonini beradi. Estoniya tajribasi bunga yorqin misoldir: u yerda 99% davlat xizmatlari onlayn ko'rinishda taqdim etiladi. O'zbekistonda ham "my.gov.uz" portali orqali 300 dan ortiq xizmatlar elektron shaklda ko'rsatilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy adolat va shaffoflik ijobiy tus ola boshlaydi, axborotlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi. Raqamli tizimlar orqali ma'lumotlar ochiqligi ta'minlanadi, bu esa jamiyatda ishonchni kuchaytiradi.

Siyosiy boshqaruv va davlat tizimida axborotlashtirish bir qancha jarayonlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli tizimlar yordamida qarorlar qabul qilish, ma'lumotlar to'g'riligiga tezda aniqlik kiritish va ishonch hosil qilish davlat boshqaruvida samaradorlikni yuzaga chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirmoqda. Masalan, bir qator mamlakatlarda saylov jarayonlarida elektron ovoz berish tizimlari joriy etilgan. Axborotlashtirish jarayoni insonlarning madaniy va ma'naviy hayotini ham o'zgartirmoqda. Tashkil etilgan elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan arxivlar milliy va jahon merosini asrab-avaylash imkonini bermoqda. Masalan, yurtimizda O'zbekiston Milliy kutubxonasining ko'plab fondlari elektron shaklda saqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri — bu jamiyatni to'liq axborotlashtirish, raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa barcha sohalarga joriy etish hisoblanadi. Mazkur jarayon mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida alohida o'rin tutadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2018-yilda "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi, 2020-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash

¹ McKinsey and Company Industry 4.0 Capturing value at scale in discrete manufacturing.

to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatlar axborotlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutib, quyidagi strategik vazifalarni belgilab berdi:

1. Davlat xizmatlarini to'liq elektronlashtirish – "Elektron hukumat" tizimini yanada kengaytirish va fuqarolarga davlat xizmatlarini tezkor, shaffof va samarali ko'rinishda taqdim etish.

2. Iqtisodiyotni raqamlashtirish – ishlab chiqarish, bank-moliya va soliq tizimlarida elektron boshqaruvni joriy etish, elektron tijoratni rivojlantirish.

3. Ijtimoiy sohalarni axborotlashtirish – ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa sohalarda raqamli xizmatlarni keng joriy etish.

4. Kiberxavfsizlikni mustahkamlash – milliy axborot infratuzilmasini global tahdidlardan himoya qilish.

5. IT-sohani rivojlantirish va kadrlar tayyorlash – yangi IT-parklar, texnoparklar tashkil etish, yoshlarni zamonaviy dasturlash va texnologiyalar bo'yicha tayyorlash.

Bu huquqiy asoslar O'zbekistonni global axborot makonida faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bank-moliya tizimida axborotlashtirish va xizmat ko'rsatishga katta e'tibor qartildi, barcha tijorat banklari mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishni keng yo'lga qo'ydi, elektron to'lov tizimlari joriy qilindi. 2024-yilda mamlakatda naqd pulsiz hisob-kitoblarning hajmi 2023-yilga qaraganda 38 foizdan 41 foizga oshdi oshdi. Elektron tijoratning rivoji keskin jadalladi. 2023–2024-yillarda O'zbekistonda e-commerce bozorining hajmi 5 barobarga oshdi. "UZUM Market", "Zoodmall", "OLX" kabi milliy va xalqaro platformalar iqtisodiyotning muhim segmentiga aylandi. "my.soliq.uz" elektron portali tadbirkorlik sub'ektlariga soliq hisobotlarini masofadan topshirish imkonini bermoqda. "e-Poliklinika", "my.med.uz" kabi tizimlar aholiga elektron navbat olish, shifokor qabuliga yozilish, elektron retsept olish imkonini bermoqda. 2024-yilda respublika bo'yicha 500 dan ortiq tibbiyot muassasasida raqamli tibbiy karta joriy etildi.

Axborotlashtirish jarayoni bilan birga kiberxavfsizlik muammolari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois, O'zbekistonda 2022-yilda "Kiberxavfsizlik konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu konsepsiya:

- milliy axborot infratuzilmasini himoya qilish;
- davlat va tijorat sektorida xavfsizlik protokollarini joriy etish;
- axborot xurujlariga qarshi tezkor javob berish mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi (Qonun, 2022).

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, BMTning Raqamli rivojlanish hisobotida yuqori raqamli tayyorgarlikka ega bo'lgan davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtacha 6–7% ni tashkil etadi, past tayyorgarlikka ega mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 2–3% dan oshmaydi. Demak, axborotlashtirish darajasi bevosita iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan 2024-yilda global IT xizmatlari bozori hajmi 1,4 trillion AQSh dollariga yetdi (Statista ma'lumotlariga ko'ra). Elektron tijorat hajmi esa 6,3 trillion dollarni tashkil etib, jahon chakana savdosining 20 foizidan ortig'ini qamrab oldi. Masofaviy ta'lim bozorining qiymati 2025-yilga borib 400 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.² Bu raqamlar axborotlashtirishning nafaqat ijtimoiy, balki global iqtisodiy jarayonlarda ham hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatadi.

O'zbekiston ham bu global tendensiyalardan chetda qolmayapti. 2024-yil yakunlariga ko'ra mamlakatda IT xizmatlar eksporti 500 mln AQSh dolloridan oshirish nazarda tutilgan ya'ni 5 yil ichida 10 barobarga oshirish aytilmoqda. Elektron hukumat xizmatlari soni 300 dan ortdi va 20 mln dan ortiq fuqarolar undan foydalanmoqda. Masalan, soliqlarni onlayn to'lash, biznesni ro'yxatdan o'tkazish, kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish va boshqa jarayonlar endilikda masofadan amalga oshirilmoqda. Natijada, byurokratik to'siqlar sezilarli darajada kamaydi, davlat organlarining shaffofligi oshdi va korrupsiyaga qarshi

² <https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024>

samarali mexanizmlar shakllandi. Ilmiy nuqtayi nazardan olganda, bu jarayon “good governance” (yaxshi boshqaruv) tamoyillarining amalda qaror topishini ta’minlamoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, axborotlashtirish davlatning strategik rivojlanishida poydevoriy omilga aylanmoqda. Agar belgilangan rejalarining izchil amalga oshirilishi ta’minlansa, mamlakat nafaqat mintaqada, balki global miqyosda ham raqamli iqtisodiyotning yetakchi markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyotidan kelib chiqib aytish mumkinki, axborotlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda tezroq sur‘atlarga ega. O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi mamlakatni mintaqaviy raqamli markazga aylantirish salohiyatiga ega. Kelgusi 5–10 yillikda IT xizmatlari eksporti, elektron hukumat, elektron ta’lim va elektron tijoratning kengayishi jamiyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining strategik omiliga aylangan. U iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ijtimoiy adolat va boshqaruv shaffofligini ta’minlaydi, madaniyat va ma’naviyat taraqqiyotini jadallashtiradi, inson kapitalini rivojlantiradi va global raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Demak, jamiyat rivojida axborotlashtirishning o‘rni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham fundamental ahamiyat kasb etar ekan. XXI asrda jamiyat taraqqiyotining sur‘ati va sifat darajasi, asosan, mamlakatning raqamli transformatsiyaga qay darajada moslasha olishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi so‘nggi yillarda muttasil o‘sib bormoqda va raqamli transformatsiya mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy drayverga aylangan. Xullas, jamiyat rivojida axborotlashtirishning o‘rni beqiyosdir. U iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ilm-fan va ta’limni modernizatsiya qiladi, ijtimoiy hayotni yengillashtiradi va global maydonda raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Demak, axborotlashgan jamiyat—bu kelajak jamiyatidir, raqamli taraqqiyot esa uning bosh strategik yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Bu tahlil natijalariga tayanib, jamiyat rivojida axborotlashtirishning o‘rni faqat texnologik yangilanish bilan cheklanib qolmay, balki insoniyat taraqqiyotining yangi sivilizatsion bosqichini belgilab bermoqda degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. (2009) *“Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti”* Toshkent, Fan.

Bell D. (1973) *The Coming of Post-Industrial Society*. New York: Basic Books.

Castells M. (1996) *The Information Age: Economy, Society and Culture*. Blackwell Publishing.

Farmon (2020) <https://lex.uz/docs/-5030957> /O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni.

Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. (2015) *“Innovatsion ta’lim texnologiyalari”* Toshkent.

OECD (2022). *Digital Economy Outlook*. Paris: OECD Publishing.

Qonun (2022) <https://lex.uz/ru/docs/-5960604> O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni.

Toffler A. (1980) *The Third Wave*. New York: Bantam Books.

UNESCO (2021). *ICT in Education: Policy, Infrastructure and OER*. Paris.